XALQ DEPUTATLARI YOZYOVON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-iyun VII-8-43-11-165-K/25 Yozyovon tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida» gi 2012- yil 16-oktabrdagi 295- sonli qaroriga muvofiq tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Yozyovon tuman hokimi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha xududiy kamissiyaning 2023- yil – 10-martdagi bo‘lib o‘tgan yig'ilishida ko‘rib chiqilgan masalaga asosan tumanda 1 ta istirohat bog‘i nomi Davlat ekspertizasidan qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilganligi aniqlandi va ular O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi davlat reestriga kiritilishi kerakligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu masalani tuman hokimligi huzuridagi komissiya qayta ko‘rib chiqishi va muhokama qilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligidan ekspertizadan o‘tkazib berishida amaliy yordam so‘ralganligi ta’kidlab o‘tildi.

Shu munosabat bilan mazkur masala tuman hokimligi huzuridagi komissiya ishtirikida qayta ko‘rib chiqildi va muhokama qilindi, hamda ilovaga muvofiq taqdim qilingan 1 ta istirohat nomi komissiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman hududiy komissiyasining 2025- yil 5 maydagi № 01-19/20-sonli bayonida keltirilgan takliflarni inobatga olgan holda Xalq deputatlari Yozyovon tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yozyovon tuman hokimi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy kamissiyaning 2025- yil 5-maydagi bo‘lib o‘tgan № 01-19/20 sonli yig‘ilish bayoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi 1 ta istirohat bog‘i nomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi tuman filiali rahbari N.Imomatovga:

Mazkur 1 ta iistirohat bogi‘ nomini o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat reestriga ro‘yhatdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining maslahatchisi N.Obidova mas’ul etib belgilansin.
5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Kengash raisi  DJALILOV DILSHOD TURSUNMURODOVICH

Xalq deputatlari Yozyovon tumani
Kengashining
2025-yil 5-iyundagi
VII-8-43-11-165-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida» gi 2012- yil 16-oktabrdagi 295- sonli qaroriga muvofiq tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

№	Geografi obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izox
1	Istirohat bog‘i	Yozyovon MFY	nomsiz	“Yozyovon istirohat bog‘i”	